

ZAMONAVIY GADJETLARGA QARAMLIKNING VOYAGA YETMAGAN YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Eshov Namoz Sanoqulovich

O'zR IIV ning 1-sonli Toshkent akademik litseyi

Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida yetakchi o'qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada Zamonaviy gadjetlarga qaramlikning voyaga yetmagan yoshlar tarbiyasiga ta'siri. Shuningdek, internetning ijtimoiy tarmoqlarining jamiyatga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga kirib borishi ularning ijtimoiylashuv, yoshlarni tarbiyalashga ta'siri, ularni ijtimoiy-me'yoriy tizimga integratsiyalashuvini nazarda tutadi. Internetga kontseptsiya sifatida qaramlik uch xil ma'noga ega. Maqolada deviant xatti-harakatlarning bir qismi sifatida internetga qaramlikni o'rganish natijalari keltirilgan. Shuning uchun internetning ijtimoiy tarmoqlarining disfunktsiyasi, ayniqsa, yosh avlodga nisbatan potentsial deviasiya maydoni sifatida qaralishi mumkin.

Kalit so'zlar: internetning ta'siri, aloqa, ijtimoiylashuv, zamonaviy yoshlar, axborot vampirizmi.

Аннотация. В статье рассматривается влияние пристрастия к современным гаджетам на образование несовершеннолетних. Также рассмотрено влияние социальных сетей Интернета на общество. Проникновение социальных сетей в жизнь общества предполагает их влияние на социализацию, образование молодежи, ее интеграцию в социально-нормативную систему. Интернет-зависимость как понятие имеет три разных значения. В статье представлены результаты исследования интернет-зависимости как части девиантного поведения. Поэтому дисфункцию социальных сетей Интернета можно рассматривать как область потенциальных девиаций, особенно в отношении молодого поколения.

Ключевые слова: влияние Интернета, общение, социализация, современная молодежь, информационный вампиризм

Abstract. In the article, the influence of addiction to modern gadgets on the education of minors. Also, the influence of social networks of the Internet on society is considered. The penetration of social networks into the life of society implies their influence on socialization, education of young people, their integration into the social-normative system. Internet addiction as a concept has three different meanings. The article presents the results of the study of Internet addiction as part of deviant behavior. Therefore, the dysfunction of the social networks of the Internet can be considered as an area of potential deviation, especially with regard to the younger generation.

Key words: influence of the Internet, communication, socialization, modern youth, information vampirism.

KIRISH

Hozirgi davrda Internet tarmog'iga ulangan kompyuter, mobil telefonlari deyarli ko'plab xonadonlarda mavjud. Bundan tashqari, yoshlar internet kafelarda ham tarmoqdan foydalana oladilar. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal taraqqiy etishi va ijtimoiy- iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga joriy etilishi sababli barcha uchun kompyuter savodxonligi dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Internet ta'siri ostida jamiyat tarkibida o'zgarishlar yuz beradi bu olimlar uchun juda qiziqarli mavzu. Buning sababi odamlar va jamiyatga internetning salbiy va ijobiy oqibatlariga olib keladigan noaniq ta'siridir.

Zamonaviy dunyoda o'z hayotingizni Internetdan foydalanmasdan tasavvur qilish qiyin. amonaviy gadjetlar yordamida siz juda ko'p foydali ma'lumotlarni olishingiz mumkin. Bu har bir inson uchun hayotning ajralmas qismiga aylangan butun dunyo bo'ylab tarmoq. Ammo ko'plab mutaxassislar Internet zararli ekanligini ta'kidlaydilar, ammo avval uning foydalarini ko'rib chiqamiz. Dunyoda har kuni kompyuterdan foydalanadiganlar ko'p. Ular o'z hayotlarini butunjahon tarmog'isiz tasavvur qila olmaydilar, aksincha, bu dunyodagi eng katta yutuq deb hisoblaydilar. Axir siz endi kutubxonalarga borishingiz, u yerda bo'lmasligi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni qidirishingiz yoki kimdir undan foydalanishini kutishingiz shart emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xususan, 2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berilishi – ta’lim va tarbiya samaradorligi borasida qilinishi zarur bo‘lgan ishlarning ko‘lamidan dalolat beradi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda – bugun biz ulug‘ niyatlar bilan poydevorini qo‘yayotgan yangi Uyg‘onish davrida, xalqimiz hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o‘zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladigan konsepsiyani ishlab chiqishimiz, ya’ni “2022-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi”ni yaratishimiz maqsadga muvofiqdir[1]. Shu maqsadda, davlatimiz tomonidan “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirilishi reja qilingan davlat dasturi qabul qilindi.¹

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta’lim va tarbiya samaradorligiga to‘siq bo‘luvchi kibermakon omillari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion aloqadorlik koeffitsiyentining mavjud yoki mavjud emasligi analiz va sintez metodi ko‘magida tahlil etilib, muammoni keltirib chiqaruvchi sababiyat turkumlashtiriladi, ya’ni hodisa mohiyati tarkibiy qismlariga ko‘ra bo‘laklarga ajratilib, olingan natijalar murakkablik darajasiga nisbatan yaxlitlashtiriladi. Tadqiqot xulosalari o‘zaro ta’sir kuchidagi differensiyalashuv darajalariga qarab, mantiqiy asoslanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yondashganda, zamonaviy kibermakon ta’sirida yoshlarni buyuk avlodlarga munosib bo‘lib tarbiya topishiga quyidagi omillarning salbiy ta’siri sezilmoqda:

1. Ommaviy axborot vositalarining globallasuvi. OAV auditoriyasining cheksizligi, bir vaqtning o‘zida psixologik, pedagogik, sotsiologik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ta’sir etish imkoniyatining kengligi, bu vositaga ko‘plab “inson qalbiga yo‘l eshiklarini” ochib bermoqda. Albatta, XXI asrda OAVdan foydalanmaslikning iloji yo‘q. Ya’ni OAV insonlar (bizlarning) hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bu borada

¹ Кимберли С.Янг. Диагноз - интернет-зависимость // НарКом *сайт+. *Электронный ресурс+. Режим доступа: <http://www.narcom.ru/ideas/common/15.html/> (дата обращения: 10.06.2020).

Maxatma Gandining quyidagi fikrini keltirib o'tish kifoya: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim ham berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman". Bundan xulosa shuki, OAV yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etmasligi uchun, avvalo "ommaviy axborot vositalari seleksiyasini" to'g'ri yo'lga quyish kerak.

2. Dunyoviy davlat sifatida o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olishga urinayotgan jamiyatimizda fikrlar xilma-xilligi, e'tiqod erkinligi, so'z-fikr bildirish demokratiyasining mustahkamlanib borayotganligi ortidan – aksariyat yoshlar qalbida (ongida) "qadriyatsizlik", "ma'naviyatsizlik" elementlari ham sezilarli darajada oshib bormoqda. Milliy ma'naviy qadriyatlarga sodiq bo'lib tarbiya topish o'rniga kosmopolitistik g'oyalar qaror topmoqda.

Bunga albatta o'zimiz (chuqur tafakkur etmay qabul qilgan qarorlarimiz) sabab bo'lmoqda. Masalan, aksariyat ota-onalar hayot tarzida – bolamni moddiy ta'minotini ta'minlash mening asosiy burchim, qabilidagi tushuncha ortidan kirib kelayotgan "bola tarbiyasiga e'tiborsizlik", yoshlar (balog'atga yetmagan farzandlar) o'rtasidagi ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Aniqroq aytganda, farzandini yoshi ulg'ayib, "farzand tashvishlari" boshlanguniga qadar, uning moddiy jihatdan ta'minotini qondirishga qaratilgan harakatlari (masalan, chet davlatlariga borib ishlash maqsadida – mehnat migratsiyasini amalga oshirish), guldek beg'ubor, yosh niholdek tarbiyaga muhtoj bo'lgan farzandini – ma'naviy qashshoq, ilmiy salohiyatsiz, mehri kamtik, xudbin bo'lib voyaga yetishiga olib kelmoqda.

3. Yoshlarni hayotga "yengil-yelpi" qarashi, shoshqaloqlik bilan qarorlar chiqarishi, "ommaviy madaniyat"ga bo'lgan moyilligini ortishi, ilm olishni sharafli mashg'ulot emas, aksincha majburiyat sifatida baholashi, ularda ilmsizlikni qaror topishiga olib kelmoqda. Bu jarayonga kibermakon imkoniyatlari yanada kuchli ta'sir etmoqda. Masalan, aksariyat yoshlar o'zini onlayn "qahramonlar" obrazi kabi tutishga urinishi, kitob orqali ilm izlashdan ko'ra onlayn (Google, Instagram, Twitter, Facebook va boshqalar) ilm izlashni afzal bilishi, tasdiqlanmagan, rasmiy manbaga ega bo'lmagan ma'lumotlar orqali "ilmiy qurollanishi", ya'ni hayotiy tajribaga, diniy e'tiqodga oid

ilmlarni onlayn xizmatlardan izlashi natijasida – yoshlar ongida ishonchsiz ma'lumotlarni to'planib borayotganligi, natijada ularda ilmsizlik ortib, fundamental bilim olishga urinishdan ko'ra "noaniq manbali" yoki "tajribada sinalmagan o'git, pand-nasihati"ga ishonish alomatlari avj olmoqda.

4. Zamonaviy gadjet texnologiyalari, internet tarmoqlaridan unumli foydalanish tizimini tartibga solish bo'yicha davlat dasturlari zamon talablariga mos holda ishlab chiqilmayotgani, yoshlarda "axborot seleksiyasi"ni amalga oshirish ko'nikmasi o'ziga xos qolishiga turtki bo'lmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda, inson hayotining deyarli barcha jihatlariga (xususiyl) daxl qilmoqda. U shaxsga o'z bilimlarini oshirish, professionalizmini yuksaltirish, ehtiyoj va mayllaridan "tartibsiz" qondirishga sabab bo'lmoqda. Bu borada psixolog Turman Sornuris shunday xulosa beradi: zamonaviy texnologiya inqilobi oldin ma'lum bo'lmagan komputer va internetga qaramlik – ruhiyl kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu kasalliklarning xatarli jihati shundaki, ular omma xulq-atvoriga salbiyl ta'sir ko'rsatib, giyohvandlik kabi og'ir asoratlarni beradi. Keyingi yillarda ruhiyl-asab va boshqa kasalliklar ko'paydi. Bunga komputer, internet, video va uyali telefonning ommalashgani sabab bo'ldi. Chunki bular insonning yolg'izlanishi, oilaviyl aloqalarning uzilishiga olib keldi. Bular insonni boshqalarga emas, balki faqat o'zi bilan o'zi band qilib qo'ydi.

5. Kibermakonning texnologik qurilmasi bo'lgan axborot-kommunikatsiya rivoji, birinchi navbatda inson shaxsi, ongi va dunyoqarashiga ta'sir etib, uning ijtimoiyl o'lovlarini o'zgarishiga olib keldi.²

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, eng achinarlisi, ayrim befarq ota-onalar farzandim zamonaviyl gadjetlar orqali, bilim olyapti, deb o'ylashadi. Shu o'rinda talabalarning ba'zi dars paytlarida qo'l telefonlari orqali internet saytlariga kirib, bemalol foydalanib

² Karimovna, N. Y. (2022). YOSHLARDA INTERNETGA TOBELIK MUAMMOLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 96-99.

o‘tirishlariga munosabat bildirmoqchiman. To‘g‘ri talaba mustaqil izlanuvchi shaxs sifatida, bilimini ko‘proq boyitishi, turli xil manbaalarga murojaat etishi yaxshi. Lekin dars hisobidan emas... chunki, harnarsaning ham o‘z vaqt-soati bor, shu jumladan internetdan foydalanishning ham. Yaqinda yana bir atama tilimizda ishlatila boshlandi. Bu igromaniya tushunchasi. Hash-pash deguncha ommalashib ham ketmoqda. Ruhshunoslarning ma’lumotlariga qaraganda, yoshlar buzg‘unchi, destruktiv g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hali to‘la shakllanmagani uchun o‘qigan yoki ko‘rgan ma’lumotlariga tez ishonishadi. Bunday hollarda yoshlarning ma’naviyatiga, ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan igromaniyani hech bir jihatdan oqlab bo‘lmaydi. Kundalik hayotimizda har narsaning salbiy va ijobiy tomoni bo‘lgani kabi zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda ham me’yorga amal qilmog‘imiz zarur!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кимберли С.Янг. Диагноз - интернет-зависимость // НарКом *сайт+. *Электронный ресурс+. Режим доступа: <http://www.narcom.ru/ideas/common/15.html/> (дата обращения: 10.06.2020).
2. Karimovna, N. Y. (2022). YOSHLARDA INTERNETGA TOBELIK MUAMMOLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 96-99.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/internet-va-ijtimoiy-tarmoqlarning-yoshlarga-tasiri>
4. https://naqshband.uz/makolalar/internetning_yoshlar_tarbiyasiga_tasiri
5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.